

## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING SINERGETIK TAHLILI

**Xodjibayeva Nargiza**

*G'allaorol tumani 58-maktab huquq fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyoti davrida ta'lim jarayoniga bo'lgan etibor, ta'lim sifatini oshirishga doir muhim masalar ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, ta'lim sifatini oshirishning sinergetik imkoniyatlari bayon etilgan. Ta'lim sinergetik metodologiyaning ob'ekti sifatida tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, ta'lim sifati, ta'lim mazmuni, sinergetika, fluktuasiya, murakkablik, ochiq tizim, fanlararo yondoshuv, o'z-o'zini tashkil etish, nohiziqli tafakkur*

**Аннотация.** *В статье описывается внимание к образовательному процессу в период развития Нового Узбекистана и вопросы связанные с повышением качества образования, содержанием образования, возможностями синергетики в повышении качества образования. Проанализировано образование как объект синергетической методологии.*

**Ключевые слова:** *образование, качество образования, содержание образования, синергетика, флуктуация, сложность, открытая система, междисциплинарный подход, самоорганизация, нелинейное мышление.*

**Abstract.** *The article describes attention to the educational process during the development of New Uzbekistan and issues related to improving the quality of education, the content of education, the possibilities of synergy in improving the quality of education. Education is analyzed as an object of synergetic methodology*

**Keywords:** *education, quality of education, content of education, synergetics, fluctuation, complexity, open system, interdisciplinary approach, self-organization, nonlinear thinking.*

### KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti, mustaqillik yillaridan boshlab, dinamik o'sish va zamonaviy transformatsiyalash jarayonlari bilan ajralib turadi. 2023 yil oxiriga kelib, O'zbekistonning Yalpi Ichki Mahsuli (YIM) o'sishi 5.5% ga yetgan bo'lib, bu mamlakat iqtisodiyoti global inqirozga qaramay, o'zining barqarorligini saqlab qolganligini ko'rsatadi. O'zbekiston, 2022 yilda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sektorlarining o'sishi natijasida YIMning 80% dan ortig'ini ishlab chiqardi.

Biroq, iqtisodiy rivojlanish faqat raqamlar bilan o'lchanmaydi; iqtisodiy tizimning murakkabligi va turli omillarining o'zaro ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Bunda sinergetik tahlil usullaridan foydalanish, iqtisodiyotning yuqori samaradorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi davomida amalga oshirilgan islohotlar, innovatsiyalar va xalqaro hamkorliklar, ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillar sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim hozirgi zamon jamiyatining bosh tayanchi, har qanday jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy institutlar qatoridan muhim orin egallovchi soha hisoblanadi. Ta'lim - jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "... jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini

rag'batlantirish- bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir".

Ta'lim sifatini oshirish uchun eng muhim masala bu zamonaviy fikrlaydigan, o'z ustida muntazam ishlaydigan, fidoiy o'qituvchilarni tayyorlashdir. Ta'lim sifati usuliga qarab bilim shakllanadi. Ta'lim sifati mahorat emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi.

Ta'lim uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Ta'limning mazmunini o'quv dasturlari belgilaydi. O'quv dasturlari o'rtasida bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar esa quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Hozirda ta'lim tizimi imkoniyatlari, ko'lami, qamrovi, darajasi o'zgarib bormoqda. Ta'lim tizimiga kiruvchi elementlar ham juda tez sur'atlarda o'z mazmuni va mohiyatini yangilamoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimidagi sistemasidagi o'quv jarayoni, ta'lim sifati, qabul imkoniyatlari, o'quv reja va o'quv dasturlarining tubdan o'zgarishi bunga misoldir. Ushbu o'zgarishlar ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan qabul qilinishi murakkab, tartibsiz kechayotgan bo'lsada, qisqa fursatlarda bu fluktatsion jarayonlardan tartibot shakllanmoqda. Shuning uchun, ta'lim jarayoni sinergetik tahlil etilishi muhimdir. Ta'lim doimo taraqqiy etadigan, o'zgarib boradigan, davr nuqtai nazaridan yondashiladigan, bir nuqtada qotib qolmaydigan murakkab tizim bo'lganligi uchun ham sinergetik metodologiyaning o'rganish obyekti bo'la oladi.

Sinergetik metodologiya paydo bo'lganidan beri ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlar ko'p sohalarda sinergetik metodologiyaning imkoniyatlaridan foydalanganmoqda. Bugungi kunda jadal globalashuv va taraqqiyot davrida yangicha tafakkurni egallash, har bir tadqiqot ob'ektini zamonaviy usullardan foydalangan holda har tomonlama o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, jahon andozalariga to'laqonli javob beradigan, zamon bilan hamnafas avlodga ta'lim - tarbiya berish, ta'lim sifatining samaradorligini oshirish uchun olib borilayotgan islohotlar doirasida sinergetik metodologiya imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etadi.

Sinergetika yunoncha (guv — «o'zaro» va spyo' — «harakat»)dan olingan bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro muvofiqlashuv kabi ma'nolarni anglatadi. Sinergetika ta'limoti XX asrning so'nggi choragida paydo bo'lgan ta'limot hisoblanib, ushbu ta'limotning vujudga kelishi natijasida yangi falsafiy yondashuv hisoblangan postklassik fan, postnoklassik dunyoqarash shakllandi. Postnoklassik fan mahsuli bo'lgan sinergetikada esa nazariy mulohaza va ilmiy tahminlar bir necha variantlarda namoyon bo'lishi e'tirof etiladi. Sinergetika - bu dunyoga yangicha qarash bo'lib, fanlardagi yangiliklarni umumlashtirish, o'z-o'zini tashkil qilish, nochiziqli tafakkur asosida global evolyutsion jarayonni tahlil qiluvchi fanlararo ilmiy tadqiqot usuli hamdir.

Sinergetik metodologiya ta'lim tizimining ochiqlik, murakkablik, nomutanosiblik, tartibsizlik va o'rganilayotgan ob'ektlar to'plami orasida chiziqli bo'lmaganlik kabi tomonlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega hamda ushbu metodologiyaning o'rganish ob'ektini ochiqlik, murakkablik, xilma-xillik, birlik, muvozanatsizlik kabi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ta'lim

jarayoni - bu murakkab tizimdir, chunki u o'zaro bog'liq va o'zaro tuzilmalashtirilgan elementlardan tashkil topadi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi va h.k

Ta'limni sinergetik metodologiyaning ob'ekti sifatida tahlil qilishimiz mumkin, chunki u ochiq tizimdir. Tizimning muvozanat holatidan chiqishi uning xaos holatiga o'tishiga olib keladi va natijada suzuvchi, beqaror bo'ladi. Aynan shunday suzuvchi, tartibsiz holat tufayli qandaydir ta'sir tizimning holatini o'zgartiradi, bu sinergetik nuqtai nazardan fluktuatsiya holati deb ataladi. Fluktatsion holatlar ro'y berishi kuzatiladi. Fluktatsion holatlarsiz ta'lim islohoti o'rnatilishi qiyin. Fluktatsion (qalqib turuvchi) xususiyatni ta'lim tizimida yangi bir innovatsiya, o'zgarish, texnologiya kirib kelganda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bu yangiliklarni qabul qilishi vaqtidagi holatlarida, ayniqsa, ko'p kuzatish mumkin. Fanning rivojlanishi, ilmiy bilimlar rivoji jarayoni sinergetik talqin bo'yicha doimiy tarzda o'zgarib turadi, qayta tuziladi, o'zini o'zi qayta tuzadi va o'z ko'rinishini o'zgartiradi.

Ilmiy adabiyotlarda O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining muhim omillari sifatida davlat siyosati, investitsiya muhitining yaxshilanishi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik keltiriladi. Misol uchun, O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi va Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, 2022 yilda mamlakatda 4.8% iqtisodiy o'sish vaqti, qishloq xo'jaligi sektori 3.1% ga, sanoat sektori esa 6.2% ga o'sganligi qayd etilgan.

Tahlil metodologiyasi sifatida sinergetik yondashuvlar, tizimlar nazari va iqtisodiy modellar birlashtirilgan. Ushbu yondashuvlar iqtisodiy jarayonlarning murakkabligini, o'zaro bog'liqligini va zamonaviy tendentsiyalarni tahlil qilishda yordam beradi. Tizimlar nazari orqali O'zbekiston iqtisodiyoti ichidagi turli sektorlarga, shuningdek, ularning o'zaro ta'siriga diqqat qaratiladi.

Bundan tashqari, statistik tahlil metodlari, jumladan, vaqt qatorlari analizi va regressiya tahlili, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillarini aniqlash va prognozlashda qo'llaniladi. 2023 yilda amalga oshirilgan tadqiqotlarda kelajakda O'zbekiston iqtisodiyoti 2030 yilgacha YIMning o'sishini 7% gacha oshirishni kutmoqda, bu global iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday bashoratlar, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining sinergetik tahlili ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va ilg'or metodologiyalar asosida amalga oshiriladi, bu esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining kelgusidagi yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Faylasuf olim L.Qurbonova fikricha, "Sinergetika - nochiziqli ijodiy tafakkur asosida evristik fikr yurituvchi metodologik ahamiyatga ega bo'lib, barcha metodologik jihatlarida o'zgaruvchanlik xususiyatini ifodalaydi. Bu esa, sinergetikaning umumiy modelini yaratishga yo'naltirilgan barcha harakatlar befoyda ekanligini ko'rsatadi. Zero, fanda sinergetikaning yangi elementlari shakllanadi va shu sababga ko'ra bu jarayon doimo nochiziqli xarakterga ega bo'ladi". Sinergetika metodologiyasi tizimli yondashuv asosida aynan zamonaviy ta'lim uchun asos bo'la oladigan, integratsion ta'limni targ'ib etayotgan muhim ta'limotdir. Bugun dunyoda ta'lim jarayoni shu qadar ilgarilab ketdiki, endi rivojlangan mamlakatlar hech bir qo'shimcha moddiy va tabiiy resurslarni sarflamasdan, hech bir energiyani ishlatmasdan faqat aql bilan yuksak iqtisodiy salohiyatga erishmoqda.

Sinergetik metodologiya bu shaxsning individual bilim va ijodiy faoliyatini tushunish va

rivojlantirish usullarini o'quvchilar bilan birgalikda o'rganishga qaratilgan. "Sinergetik yoki o'zini-o'zi tashkil etish nazariyasi bugungi kunda eng mashhur va istiqbolli fanlararo yondashuvlardan biri bo'lib tuyulmoqda. Mustaqil o'rganish, o'z- o'zini rivojlantirish iboralari sinergetikaning asosini tashkil etadi. Eng yaxshi rivojlantirish-bu o'z ustida ishlashdir. Sinergetikada ishlab chiqilgan usullar, tushunchalar notirik, tirik va mental sohalarida ham qo'llanishi mumkin. Ikkita fan sohalarining to'qnashgan joyida bir fanning usullari asosida ikkinchi fanning obyektlarini tadqiqoti olib boriladi. Masalan, fizikaviy ximiya, matematik biologiya va h.k. Fizikaviy usullari asosida kimyoviy hodisalar o'rganiladi va h.k.Sinergetika g'oyasi aynan shu muammoni yechishga qaratildi.

Sinergetik metodlar yordamida har hil mohiyatga ega bo'lgan tizimlar bitta, yagona model orqali ifodalanishlari mumkin. Bu holda bitta fanning natijalaridan boshqa fan mutaxassislari ham o'z tadqiqotlarida foydalanishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni hamkorlikda rivojlanadigan, birgalikda harakatlanib yagona tizim muvaffaqiyati uchun, yaxlitligi uchun faoliyat olib boradigan qismlar yig'indisidan tashkil topgan. Xulosa ornida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etuvchi har bir qism funksiyasini oqilona amalga oshishi uchun kerakli islohotlarni rivojlantirish, har bir shaxs faqat kasb egallabgina qolmasdan, turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va jamoa bilan ishlay olish konikmalarini shakllantirgan kompetentlikka ega bo'lishi, sinergetik ta'lim metodlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi Ozbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 yil, 299 bet
2. Мукушев Б.А. Синергетика в системе образования. // Образование и наука. 2008. № 3. - С.107.
3. Qurbonova L. Sinergetikaning metodologik omillari // Sinergetika: rivojlanishi va istiqbollari: ilmiy anjuman (ilmiy maqolalar to'plami) / tahrir hay'ati M.N.Abdullayeva va boshq. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Namangan Davlat un-ti, O'zR FA, I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. - Namangan: Namangan nashriyoti, 2010. - B. 85
4. Tulenova K.J. Перспективы развития науки и научной школы в Узбекистане. / Academic research in educational sciences. Том 2. Стр 619- 628
5. Li E.V., Izzetova E.M. Synergetic approach in the education system./ Science and innovation. Том 2.стр 95-99